



KATTAQO`RG`ON, GAVA YOKI QADIMIY KUSHONIYA XAROBALARI

Suyarov Abdulatif

Jizzax davlat pedogogika universiteti magistranti

Anotatsiya: Ushbu maqolada Kattaqo`rg`on tumani hududida olib borilgan arxeologik izlanishlar, o`tgan asrning 50-60-yillarida Kushon imperiyasining markaziy shahri deya tahmin qilinayotgan Kushoniya shahri xarobalarini izlash bilan bog`liq tadqiqotlar qanday amamalga oshirilganligi va gava shahri haqida so`z yuritiladi.

Kalit so`zlar: Kushoniya, Gava, Shi mulki, Nodirshox, Qiziltepa, chashmatepa, cho`yantepa, So`fi Olloyor, saripul.

Buyuk ioak yo`lining ajdodi bo`lgan “shoh yo`li” orqali yo`lga tushgan savdo karvonlari, Buxoro tomondan o`tayotganda Kushoniya va Arzinjon singari shaharlarda to`xtab o`tganlar. Keyinchalik bu hududlarda XVII asrda Kattaqo`rg`on shahri vujudga kelgan. Kattaqo`rg`on shahri hozirda Samarqand vikoyatining muhim iqtisodiy markazlaridan biri sanaladi.

Har qaysi shahar o`z-o`zidan , asossiz paydobo`lmaydi. Uning uchun mavjud hududda juda ulkan shaharsozlik mmadaniyati mavjud bo`lishi kerak. Samarqand hududida esa bunday tajriba qadimdan mavjud. Kattaqo`rg`on shahri ham bu o`lkada bundan 2750 yillar ilgari vujudga kelgan shaharsozlik madaniyatining merosxo`ri va davomchisidir. Ushbu davrda buy hududda Samarqand, Kushoniya, Arzinjon va Pay singari shaharlar vujudga kelib, o`zaro savdo-iqtisodiy va madaniy aloqada bo`lganlar. Darhaqiqat, Kattaqo`rg`on shahri vujudga kelgan davrga nazar tashlasak, shahar vujudga kelgan davr tariximizning eng qora va siyoziy nizolarga boy bo`lgan davri ekanligini ko`rishimiz mumkin bo`ladi. O`rta osiyo tarixida ancha yillar hukmronlik qilgan Ashtarxoniyar sulolasi XVII asrning boshlariga kelganda hukmronlikni boshlab, ko`planb siyosiy nizolar tufayli o`z mavqeini yo`qota boradi. Turli hududlarda mustaqillik istab urug`lar oqsoqollari, beklklar bilan beklklar o`rtasida nizolar tufayli, mamlakat bir necha mustaqil ma`muriy birliklarga parchalanib ketadi. Shu sababli yurtimizga yurish qilgan eronshohi Nodirshox, osonlik bilan Samarqand va Buxoro shaharlarini zabt etadi va ayovsiz talashga buyruq beradi. Shunday tahlikali vaziyatda ham ajdodlarimizning bunyodkorlik faoliyati to`xtamaydi va aynan shu davrda ular-Kattaqo`rg`on shahriga asos soladialr. XVII asrning ikkinchi yarmida shaharning paydo bo`lishi bilan bog`liq bir qancha rivoyatlar mavjud. Ulardan eng mashxurlaridan birida aytilishicha, shaharga o`zbeklarning o`tarchi urug`idan bo`lgan uchta amaldor: So`fi Olloyor, Farxod Otaliq va Olloyor Nazarbiylar asos solganlar. Rivoyatda aytilishicha ular aka-uka bo`lganlar. Ular shahr qurish uchun eng qulay joyni axtara boshlaydilar. Shunda akalari So`fi Olloyor shahar qurilishi uchun oq fotiha olish uchun o`z piringing oldiga , Buxoroga ketadi. Biroq, ukase Farhod otaliq akasining kelishi kutmasdan shahr qurilishi boshlab yuboradi va akasi kelgungacha katta qo`rg`on barpo etishga ulguradi. So`fi Olloyor piringing oldidan kelayotganligini eshitib Farxod Otaliq uning yo`liga peshvoz chiqadi va unga katta qo`rg`on qurdirganini ma`lum qiladi. Ammo, beruhsat, shoshma-shosharlik bilan ukasining shahar qurilishini boshlab yuborganidan ranjigan So`fi Olloyor Qashqadaryo tomonga yo`l oladi. Keyinchalik So`fi Olloyor o`sha hududda naqshbandiya tariqati silsilasini davom ettiradi. Farxod otali esa oilasi bilan o`zi qurdirgan katta qo`rg`onga ko`chib o`tadiva uni arkga aylantiradi. Oradan





vaqtlar o'tib mahalliy aholi Farhod otaliqni hokim qilib saylaydilar. Kattaqo'rg'on atrofida esa shahr vujudga keladi. Odamlar gavjumlashgach, shahr baland devor bilan o'ratiladi va to'rtta darvoza barpo etiladi. Darvozalar ular qaragan tarafga nisbatan: Bozordarvoza, Xaydarchaman, Samarqand va Buxoro nomlari bilan ataladi.¹

Kattaqo'rg'on atroflarida hunarmandchilik, sug'orma dehqonchilik rivojlanib, alohida beklikga aylanadi. Rossiya imperiyasi bosqini davrida Kattaqo'rg'onga polkovnik Abramov boshliq rus qo'shinlari bostirib keladi va Rossiya Imperiyasi shaharni egallaydi. Shahar atrofidagi baland devor esa-1879-yilda buzib tashlanadi.

Kattaqo'rg'on shahriga ko'plab sayyohlar tashrif buyurgan va uning o'rnida bo'lgan Kushoniya va Arbinjon singari shaharlar haqida ko'plab ma'lumotlarni yozib qoldirganlar.²

Antik yunon tarixchilari qadimgi so'g'diyona haqida gap ketganda, kattaqo'rg'on bilan bog'liq bo'lgan qadimiy Gava shahri haqida yozadilar. Hozirgi davr tarixchilari esa, qadimiy Gava shahrining joylashgan joyi va uning o'rnini haqida bahs munozaralar yuritmoqdalar. Uning kattaqo'rg'on bilan aloqasi haqida savollarga javob izlashmoqdalar. Yevropalik olim Bartalamoe Gava nomi antic so'g'diyonaning ikkinchi nomi ekanligi va: "So'g'diyonaning o'sha davrdagi poytaxtining nomi hamdir", degan fikrlarni aytadi.³ Tarixiy ma'lumotlarni chuqur tahlil qilgan Techcher degan fransuz olimi Gava degani so'g'diyonaning mustaqil muzofatlaridan biridir", - degan taxminiy fikrni ilgari tashlaydi. Yana bir yevropalik tarixchi olim Gersfeld esa, - "gava so'g'diyonaning eng ko'kam va obod qismi bo'lgan-uning yuragi bo'lgan" degan fikrni ilgari suradi. Bunday munozaralarga yana bir yevropalik olim Tomoshek ham qo'shilib, u 1877-yilda nash etgan kitobida, "Gava" nomi xitoy muarrixlari tomonidan "xo'a" shaklida talqin etilib, bu nom kushonlar imperiyasining ilk poytaxtlaridan bo'lgan, hamda So'g'diyonaning ham ilk poytaxtlaridan biri aynan Gava shahri bo'lgan, deydi. Shuningdek, Tomoshek Gava shahrining tarixiy joylashuvi haqidagi ma'lumotlarni ham fan olamiga tashlaydi. Bu fikrlarga ko'ra Gava shahri Samarqanddan 60-70 kilometr g'arbda, Zarafshon daryosining janubida, Narpay arig'ining bo'yida, hozirgi kattaqo'rg'on tumani hududida bo'lgan deydi. Yana bir yevropalik olim Markvart Tomoshekning fikrlariga qo'shilib, Gava shahrini qadimiy kushoniya deya, arab tarixchilarining ma'lumotlarini ilova qilib keltiradi.

Rus olimlari ham bu bahslarga qo'shiladilar. Ulardan biri K. Trever ismli olim fan uchun juda muhim fikrlarni o'rta tashlaydi. Uning izlanishlari natijalariga ko'ra, Gava haqiqatdan ham obot va madaniyat rivojlangan o'lka. O'tloqlarga va bog'larga to'lib toshgan. Faqat, bu nom so'g'diyonaning ikkinchi nomi emas, balki, miloddan avvalgi VI asrgacha amalda bo'lgan, ya'ni bundan 2500 yillar muqaddam qo'llanilgan nom, deya ta'kidlaydi.

K. Treverning ma'lumotlaricha, yevropalik olimlar Markvart va Tomashek Gava qadimiy Kushoniya shahri ekanligini, hamda Kattaqo'rg'on atroflarida joylashgan deya to'g'ri tahmin qilishgan, deya ularning fikrini tasdiqlaydi. K. Trever shuningdek, nafaqat qadimgi sharq, balki jahon tarixi uchun Kushoniya shahrining nihoyatda ahamiyatli ekanligi haqidagi juda qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tadi va O'zbekiston tarixida inqilobiy hodisa yasaydi.⁴

Dunyo tarixi sahnasida sezilarli iz qoldirgan, qadimgi dunyo imperiyalaridan biri bo'lgan Kushonlar imperiyasining beshigi bo'lgan Kushoniya shahri xarobalarni izlab juda ko'plab arxeologlar bir necha

¹ Бердимуродов А. ИндиаминоваШ. "Буюк ипак йўли":.-2017.110-115 бет

² O'zME (<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzME>). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

³ Bartold V. V., Sochineniya, t. 2, ch.1, M., 1963;

⁴ Kushoniya haqida — Bu nima, kim u —UZTEXT.COM <https://uztext.com/48848-text.html>





marotaba arxeologik ekspeditsiya uyushtirganlar. Ammo, qadimgi Kushoniya shahri xarobalari izlab topish hammaga ham nasib etmaydi. Kushoniya shahri xarobalarini axtarib ikkinchi jahon urushiga qadar, A.Yu.Yakubovskiy, V.A.Shishkin, V.A.Vyatkin, M. Virskiy, V.I.Chertov, S.A. Suxaryev kabi olimlar bu yerlarda mavjud bo'lgan turli tuman tepaliklarni ko'zdan kechiradilar. Ammo ular o'zlari kutgan natijalarni qo'lga kirita olmaydilar. 1934-yili A.Yu. Yakubovskiy bilan V.A. Shishkinlar kademik V.V. Bartol'dning "Kushoniya shahrining qoldiqlari oqdaryo bilan qoradaryoning qo'shilish joyida, qadimiy mayonqoldagi Koshonota degan qishloda bo'lishi mumkin", degan fikriga quloq solib, ushbu yerlarda qazish ishlarini olib bordilar. Ammo ular olib brogan qazishmalar natija bermaydi. Ular Koshonatan besh kilometr narida joylashgan Izaboytepa degan yodgorlikni o'rganadilar. Biroq bu tepalik ham ular izlagan kushoniya tepaligi bo'lib chiqmaydi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng, akademik G.A.Pugachenkova ham katta arxeologik ekspeditsiya tashkil etib, XX asrning 60-70 yillarida Kattaqo'g'on va Xatirchi tumanlarida qazishma ishlarini olib boradi. (Pugachenkova) O'tgan asrning 70-yillarida O'zbekiston Fanlar Akademiyasi arxeologiya⁵ instiuti xodimlari ham Kushoniya qoldiqlarini topish uchun olib borilgan va samarasiz yakunlangan qazishma ishlarini olib boradilar. Darhaqiqat, G.A.Pugachenkova Kattaqo'rg'onida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida nafaqat kushoniyani izladi, balki Kattaqo'rg'on hududidagi boshqa yodgorliklarni ham tadqiq etib ilmiy adabiyotlarda nashr ettirdi. Bu yodgorliklar Kattaqo'rg'on tumanining "Yakkabog'" jamoa xo'jaligi hududidagi, miloddan avvalgi II-I asrlarga oid, oqdaryoning o'ng sohilidagi Qizlartepa, Chashma qishlog'idagi milodiy VI-VIII asrlarga oid, shu nomdagi Chashmatepa, hamda VII-VIII asrlarga oid Cho'yantepa yodgorliklaridir. Ushbu yodgorliklar aynan Kushoniya yodgorligi bo'lmasada, lekin Kattaqo'rg'on tarixi bilan bog'liq ancha muhim ahamiyatga ega bo'lgan san'at buyumlari, taqinchoqlar, spool buyumlar qoldiqlari va boshqa noyob tarixiy manba vazifasini bajaruvchi buyumlar topilib o'rganilgan. Ammo bularning hech birida kushoniya izlari ko'zga tashlanmas edi.

Yana bir narsani ta'kidlab o'tish kerakki, O'zbekiston hududida oddiy tepalik holida saqlanib qolingan yodgorliklarga bepisand munosabatda bo'lishmoqda, ayrim tepaliklar tekislanib ekin maydonlariga aylantirilmoqda, ayrim tepaliklar sochilib o'g'it sifatida ishlatilmoqda, yana ayrimlari esa, umuman nazardan tashqarida qolib ketmoqda. Ana shu sabab juda ko'plab noyob yodgorliklar yo'qolib ketmoqda.

Bunday holatlarga misol qilib, taniqli rus arxeologi va sharqshunosti N.I. Veselovskiy 1885-yilda olib brogan izlanishlari natijasida, bu yerdagi Yarimtepa, Saraosiyo, Choshtepa, Durbishtepa, Omonxo'ja, Qorabo'ra va Saripul kabi yodgorliklar bilan yaqindan tanishib, bu yodgorliklarni o'rganish natijasida, ularning chizmalarini chiuzadi. O'rganish natijalarining so'ngida afsus bilan shuni qayd etadilarki, mahalliy aholi yodgorliklarni bir chekkadan tozalab o'g'it sifatida dalalarga sochib yubormoqda. Agar ahvol yana shu tarzda davom etsa yaqin yillarda bu yerdagi yodgorliklarning birortasidan asar ham qolmaslogoni aytib o'tadilar.

Ahvol baribir o'nnglanmaydi. Masalan Sharqshunost N.I. Veselovskiy buy erga XIX asrning 70-yillarida tashrif buyurganligida Saripul yodgorligining anchagina qismi saqlangan edi. Ammo, arxeolog I.A. Suxarov o'tgan asrning 40-yillarida bu yerga tashrif buyurib izlanishlar olib borganligida, saripul yodgorligining faqat ayrim qismlarigina saqlanib qolgan edi xolos. XX asrning 60-yillarida esa, bu qal'a butunlay yo'q bo'lib ketadi. 1501-yilda bu yerda Shayboniyxon bilan Bobur o'rtasida xal qiluvchi jang bo'lib o'tgan edi. Undan tashqari bu qal'a yana ko'plab tarixiy voqealarga guvoh bo'lgan edi. Shunday tariximizda o'z o'rni mavjud bo'lgan ko'plab yodgorliklar mahalliy

⁵ Пугаченкова Г.А., Ремпель А.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. Ташкент, 1958. С125





aholining beparvoligi va olimlarning to'g'ri tushuntirish ishlarini olib bormaganliklari tufayli faqatgin atarix zarvaraqlarida qoldi xolos. Qasimgi kushoniya qoldiqlarini ham shunday qismat qarshi olmaganmi degan shubhalar mavjud. Lekin olimlarning fikricha bunga hali yetarlicha asos mavjud emas. Buning uchun ushbu hududda hali yana bir necha bor qazishma ishlarini oib boorish kerak. Modomiki, Kushoniya qoldiqlari topilsa, O'zbekistonning 2500 yillik tarixga ega bo'lgan bir shahri qayta tug'ilgan bo'lar edi.

Quyida kushoniya haqidagi tarixiy ma'lumotlarni keltirib o'tsak.

Zarafshon daryosining o'rta oqimida bo'lgan qadimgi viloyat va uning markazit shahri nomi Kushoniya deb atalgan. Xitoy solnomalarida Fumu (Fumu-Chan) yoki Xe deb atalgan. Kushoniya viloyatining sharqiy chegarasi Sao viloyati (Oqdaryo shimolida joylashgan yerlar) ga tegishli hududgacha 150 li (52kilometr), Janubiy sharqiy chegarasi Kan(Samarqand) hududigacha 100li_(35 kilometr), g'arbiy chegarasi An(Buxoro) hududigacha 300li (105 kilometr) bo'lgan . Uning maydoni aylanasi esa 1400 li (450 kilometr) ga yaqin masofani tashkil etgan. Qarorgohining aylanasi 2li nit ash etgan. Hukmdorlari oltin qo'chqor shaklidagi taxtda o'tirgan. Miloddan avvalgi II –milodiy I asrlargacha Kushoniya viloyati Qang' davlati tarkibiga kirgan, so'ng kushonlar sulolasdi va eftaliylarga tobe bo'lgan, milodiyt VI asr oxiri VII asr birinchi yarmida esa So'g'd ixshidlariga itoat erganlar.⁶

Faraz qilish mumkinki, ushbu hududning ma'muriy markazi bo'lmish kushoniya shaharining joylashgan joyi hozirgi Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumani shimolidagi, Nami daryosi(Zarafshon) bo'ylaridan bir necha kilometr janubroqda tashkil topgan. Kushoniya shahri “ So'g'da shaharlarining yuragi” degan unvonga sazovor bo'lib, Samarqand yuksalgunga qadar eng ko'rkam va eng boy shahlardan biri sifatida ma'daniy markaz vazofasini ham bajargan. Uning aholisining boyligi so'g'ning boshqa qismlaridan ham ko'proqni tashkil etgan. “Tan sulolasining tarixi” asarida aytilishicha Fumu shahri Xe muzofotining bir shahrini tashkil etgan. Bu shahrning kun chiqar tomonida ikki qavatli, o'zining devoriy suratlari bilan shuhrat qozongan ikki qavatli monumental, hashamatli bimo bo'lgan. Bi binoning devoriy suratlarining kun chiqar tomonida o'rta podsholikning qadimiy imperatorlari, janubiy devorda turk xoqonlari va hind rojalari, kun botar tomonidagi devorlarida esa Bose(Eron) va Folin(Surya) shohlarining tasvirlari ishlangan. Hukmdorlar har kuniish boshlashdan avval, ushbu binoga kelishgan bva hukmdorlarga hurmat bajo keltirib, inodat qilganlarva so'ngra amallarini boshlaganlar. Xitoy saroyiga Xe hukmdorlari o'z elchilarinimiyuborganlar va bu ularning ma'lum darajada mustaqil faoliyat yuritganliklaridan dalolat berib turibdi.⁷ V.V.Bartol'dning ta'kidlashicha , birgina devorlarida bunchalik ko'p mahalliy hukmdorlar va xorijiy hukmdorlarning tasvirlari mavjud bo'lgan bunday binoga ega bo'lgan shahr jahonning boshqa davlatlarida uchramaydi. Bunday tasvirlarning mavjud ekanligi esa, Kushoniya jahonning ko'plab davlatlari bilan siyosiy va ma'daniy aloqada bo'lganligini ko'rsatadi. Yurtimiz tarixida mana shunday yetakchi rol o'ynagan shahr qoldiqlari, afsuski hali hanuz topilgan emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bartold V. V., Sochineniya, t. 2, ch.1, M., 1963;
2. <https://uztext.com/48848-text.html>
3. Kushoniya haqida — Bu nima, kim u — UZTEXT.COM

⁶ Kushoniya haqida — Bu nima, kim u — UZTEXT.COM
<https://uztext.com/48848-text.html>

⁷ Shoniyozov K., Qang' davlati va qang'lilar, T., 1990 53-bet





4. Kushoniya haqida — Bu nima, kim u — UZTEXT.COM <https://uztext.com/48848-text.html>
5. O‘zME (<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzME>). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
6. Shoniyozov K., Qang‘ davlati va qang‘lilar, T., 1990
7. Бердимуродов А. ИндиаминоваШ.” Буюк ипак йўли”.-2017.
8. Пугаченкова Г.А., Ремпель А.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. Ташкент, 1958.

